LUTFULLAYEVA Durdova Esonovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi
professori, filologiya fanlari doktori
Email: 965ddd@mail.ru

SAYIDIRAXIMOVA Nasiba Sayidmaxamadovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Email: sayidiraximova@gmail.com

YOSHLARGA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA TILGA QADRIYATLI YONDASHUV

АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД К ЯЗЫКУ В ПРИВИТИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ МОЛОДЁЖИ

AXIOLOGICAL APPROACH TO LANGUAGE IN INSTILLING NATIONAL AND UNIVERSAL HUMAN VALUES IN YOUTH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida Qonunchilik Palatasi tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi” to‘g‘risidagi Qonunda belgilangan “Ta’lim yo‘nalishi”ga oid vazifalar, xususan, “insonparvarlik va adolat, do‘stlik va hamjihatlik, milliy va umuminsoniy g‘oyalarga hurmat kabi qadriyatlar singdirilishi...” masalasiga munosabat bildirilgan. Maqolada yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ayniqsa, milliy tilga qadriyatli munosabatni shakllantirish, tilga nisbatan e’tibor, hurmat ruhini kuchaytirish muhim vazifa ekanligi ta’kidlangan. Shuningdek, buyuk ajdodlarimiz, xalq og‘zaki ijodi namunalarida ilgari surilgan tilga e’tiborli bo‘lish, tilni avaylash, e’zozlash, uning sofligi uchun kurashish kabi g‘oyalarning mazmun-mohiyatini yoshlarga tushuntirish, qalbiga singdirish zarurati, ularning yoshlar tarbiyasidagi roli, ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.*

Tayanch iboralar: *vijdon erkinligi, konsepsiya, qadriyat, madaniy meros, milliy ruh, umuminsoniy g‘oyalar, tilga qadriyatli munosabat, insonparvarlik va adolat, milliy va umuminsoniy g‘oyalar, madaniyat fenomeni.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы «Образовательного направления», определенного в Законе «Об обеспечении свободы совести граждан в Республике Узбекистан и концепции государственной политики в религиозной сфере», принятом Законодательной палатой Республики Узбекистан, в частности, задача «привития таких ценностей, как гуманность и справедливость, дружба и солидарность, уважение национальных и общечеловеческих идеалов...». В статье подчеркивается, что важной задачей является укрепление национальных и общечеловеческих ценностей, особенно ценностного отношения к национальному языку, внимания к языку, а также укрепление духа уважения среди молодежи. Также в нём идёт речь о значении таких идей, как внимание к языку, сохранение и прославление языка, борьба за его чистоту, примеры народного творчества, их роль и значение в воспитании молодежи.*

Ключевые слова: *свобода совести, понятие, ценность, культурное наследие, национальный дух, общечеловеческие идеи, ценностное отношение к языку, гуманность и справедливость, национальные и общечеловеческие идеи, культурный феномен.*

Abstract. *This article examines the issues of the “Educational Direction” defined in the Law “On Ensuring Freedom of Conscience of Citizens in the Republic of Uzbekistan and the Concept of State Policy in the Religious Sphere” adopted by the Legislative Chamber of the Republic of Uzbekistan, in particular, the task of “instilling such values as humanity and justice, friendship and solidarity, respect for national and universal ideals...”. The article emphasizes that an important task is to strengthen national and universal values, especially the value attitude towards the national language, attention to language, as well as strengthening the spirit of respect among young people. It also discusses the importance of such ideas as attention to language, the preservation and glorification of language, the fight for its purity, examples of folk art, their role and significance in the education of youth.*

Keywords: freedom of conscience, concept, value, cultural heritage, national spirit, universal ideas, value attitude to language, humanity and justice, national and universal ideas, cultural phenomenon

КИРИШ

Yurtimizda “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi [1]. Ushbu qonunga “Ta’lim yo‘nalishi” deb nomlangan bandning kiritilishi nihoyatda quvonarli. Unda ta’lim yo‘nalishida dunyoviylikni ta’minlashning asosiy mexanizmlari ko‘rsatilgan bo‘lib, ulardan biri “insonparvarlik va adolat, do‘stlik va hamjihatlik, milliy va umuminsoniy g‘oyalarga hurmat kabi qadriyatlarning singdirilishini, axloqiy masalalarga maqbul yechim topish ko‘nikmalari shakllantirilishini ta’minlash”ga ham e’tibor qaratilgan.

Ma’lumki, bugungi kunda yurtimizda til o‘rgatish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu borada hukumat tomonidan, ayniqsa, milliy tilimizni o‘rganish, uning mavqeyini oshirish bo‘yicha ko‘plab qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan, yurtimiz Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [2], 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari qabul qilindi [3]. 2021-yilda “Davlat tili haqida”gi qonun qayta tahrir qilindi, yurtimizda 21-oktyabr sanasi “O‘zbek tili bayrami kuni” deb belgilandi.

So‘nggi yillarda respublikamizda ilm-fanni rivojlantirishga ham jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Bu masala bo‘yicha 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmon qabul qilindi [4]. Yurtimizda qabul qilingan ushbu farmon va qarorlar nafaqat milliy tilga bo‘lgan e’tibor, balki uni qadriyat sifatida doimo e’zozlashga ham chaqiruvdir.

ASOSIY QISM

Ma’lumki, ajdodlarimiz tilga doimo qadriyat sifatida yondashib kelishgan. Yoshlarda atrof-muhitga, tilga qadriyatli munosabatni shakllantirishda ta’limning o‘rni beqiyos. Ta’lim jarayonida milliy qadriyatlar bilan bir qatorda, umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib qilish yoshlarda tashqi olamga qadriyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Inson qadriyatlarni muayyan darajalarga bo‘ladi va bunday darajalanish ham turli jamiyatlarda bir-biridan farq qilishi mumkin. Masalan, o‘zbeklar uchun oila hech qachon qadriyatlar tizimining eng quyi yoki o‘rta pog‘onasidan o‘rin olmaydi. Qadriyatlar tizimida, ko‘pincha, inson hayoti oliy qadriyat sifatida tavsiflanadi. Mashhur nemis filosofi I.Kant insont hayotini oliy qadriyat deb hisoblaydi [5]. Uning fikricha, “Hayotini oliy darajadagi qadriyat deb bilgan insonlar o‘limdan eng kam qo‘rqadigan odamlardir” [6]. Mashhur fizik olim A.Eynshteyn ham inson hayotini oliy qadriyat sifatida ko‘rsatgan edi. Uning ta’kidlashicha, “Alohida shaxsning hayoti boshqalarning turmushini go‘zalroq va oliyjanobroq qilishga yordam bera olgan taqdirdagina ma’noga ega bo‘ladi. Hayot muqaddas, aytish joizki, hayot unga boshqa barcha qadriyatlar bo‘ysunadigan oliy qadriyatdir” [7].

Qadriyat nafaqat keng ma’noli tushuncha, balki turli sohalarning o‘rganish obyekti bo‘lganligi uchun ham lug‘atlar va tadqiqot ishlarida turlicha izohlanadi. Masalan, “Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati”da qadriyat termini quyidagicha izohlangan: “QADRIYAT real voqelikning namoyon bo‘lish shakllari, undagi narsa, hodisa va jarayonlar, shuningdek, insoniyat, jamiyat, odamlar, ularning hayoti, faoliyatining ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati va qadrini anglatadigan umumaksiologik kategoriya; inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar” [8].

Qadriyatga berilgan ushbu izohda uning insonlar uchun ahamiyatli, qadrli bo‘lishi belgisi inobatga olingan. Darhaqiqat, insonning tashqi olamdagi narsalarga qadriyatli munosabati inson va narsalar o‘rtasida aloqa - bog‘lanishni hosil qilsa, jamiyatda qadriyat sifatida baholanuvchi g‘oyalar, qarashlar uni biror bir faoliyat, xatti-harakatni amalga oshirishga rag‘batlantiradi, hayot yo‘lini izga solishida tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Qadriyatlar ichida eng muhimi tildir. Til jamiyatda belgilangan qadriyatlarni aks ettiruvchi vosita sanaladi. Har bir tilda qadriyatlarni ifodalovchi maxsus leksik birliklar, iboralar, maqollar, topishmoqlar, hikmatli so‘zlar,

ISSN 2181-9572

o‘xshatishlar, metaforalar shu xalq tomonidan belgilangan muayyan qadriyatlarni tashuvchi asosiy birliklar sanaladi. Shu jihatdan ham, til milliy-madaniy qadriyat sanaladi. Bu holat ham tilga qadriyatli munosababatni taqozo etadi.

Tilga qadriyatli munosabat uning grammatik me’yorlarini mukammal ishlab chiqish va amaliyotga keng tatbiq qilish, sofligini ta’minlash, hukmron tillarning ta’siridan himoya qilish, yozuvi, imlosini takomillashtirish kabilarda ham namoyon bo‘ladi. Tilga qadriyatli munosabat undan nutqda mas’uliyat bilan oqilona foydalanishni taqozo qiladi. Til egalarining o‘z nutqida til birliklarini buzib talaffuz qilishi, til qoidalariga nopisandlik bilan yondashib, pala-partish, g‘aliz jumlalar tuzishi, tilning aniqligi, sofligi kabilarga zarar keltirishi, tilni qadrlamaslik hisoblanadi.

Tilga qadriyatli munosabat tildan foydalanuvchi kishilarning yetukligi, kamolotini ko‘rsatadi. Inson o‘z tiliga qadriyatli munosabatda bo‘lar ekan, o‘z hayotiga, oilasi, yor-u birodarlari, atrofidagi voqea-hodisalarga, o‘tayotgan umrining har bir lahzasiga qadriyatli munosabatda bo‘ladi. Demak, til insonda tashqi olamga qadriyatli munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar tarbiyasida tilga qadriyat sifatida yondashuv tilning madaniyat fenomeni ekanligi va turli milliy madaniyatlarning yuzaga kelishi hamda o‘zaro aloqasida muhim rol o‘ynashini aniqlashga imkon beradi.

Tilga qadriyatli munosabat tilning jamiyat hayotidagi o‘rnini to‘g‘ri baholashga, uning umuminsoniyatga qanday naf keltirishi, amaliy ahamiyati va qadr-qimmatini tushunib yetishga xizmat qiladi.

“O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarni, xususan, “insonparvarlik va adolat, do‘stlik va hamjihatlik, milliy va umuminsoniy g‘oyalarga hurmat kabi qadriyatlar singdirilishi” vazifasini amalga oshirishda yoshlarda tilga qadriyatli munosabatni shakllantirish dolzarb muammolardan biridir.

Tilning qadriyat ekanligini yoshlarga singdirishda quyidagi masalalar muhim o‘rin tutadi:

1) yoshlarda tilga qadriyatli munosabatni shakllantirishda til siyosatida davlat va jamiyat a’zolari manfaatlarini birlashtirish masalasi. Bunda til bo‘yicha davlat olib borayotgan siyosat va jamiyat a’zolarining tilga bo‘lgan shaxsiy munosabatini o‘zaro uyg‘unlashtirish ko‘zda tutiladi;

2) yoshlarda tilga qadriyatli munosabatni shakllantirishda ular ongida til madaniyatning bir bo‘lagi, uning tarkibiy qismi ekanligini singdirish masalasi. Bunda yoshlar ongiga tilning madaniyat ko‘zgusi ekanligi, har bir xalqning madaniyati, avvalo, tilida namoyon bo‘lishi g‘oyasini singdirish ko‘zda tutiladi;

3) yoshlarda tilga qadriyatli munosabatni shakllantirishda ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish masalasi. Bunda tilga qadriyatli munosabatni shakllantirishda faqat ayrim kishilar, soha vakillarigina emas, balki tildan foydalanuvchi jamiyat a’zolari, xususan, yoshlarning ham faolligi talab qilinishi ko‘zda tutiladi va hokazo.

Yoshlarda milliy tilga qadriyatli munosabatning shakllanishi tilni qadrlash tuyg‘usi bilan uzviy bog‘liq. Tilni asrab-avaylash, qadrlash tuyg‘usi har bir insonda turlicha namoyon bo‘ladi. Bu tuyg‘uning darajasi asosida tilga qadriyatli munosabat ham turlicha bo‘lishi mumkin. Tilni qadrlash tuyg‘usi tilni e’zozlash, uning sofligi uchun kurashish, taraqqiyoti uchun xizmat qilishda namoyon bo‘ladi.

Xalqimizning tilga qadriyatli munosabati maqol va matallarida, aforizmlarda, iboralarida ham ko‘zga tashlanadi. Yoshlarga qadriyatlarni singdirishda maqollardan, iboralardan foydalanish qadriyat sanalmish tilning qudratini his qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalqida “Har kim o‘z tili bilan tirik” degan ajoyib maqol ishlatiladi. Bu maqol tilning qudrati, inson hayotidagi o‘rniga yuksak baho beradi.

Xalqimizning tilga qadriyatli munosabati quyidagi maqollarda ham o‘z aksini topgan: Sevdirgan ham til, bezdirgan ham til; Tilingni tiy, tishing sinmasin; Tilini tiygan boshini qutqarar; Tilga tish – qal’a, ko‘zga – qosh; Tiling qisqa bo‘lsa, qo‘ling uzun bo‘ladi; Tilingni botir qilma, o‘zingni botil qilma; Yomon til boshga balo keltirar, yaxshi til davlat, dunyo keltirar; Til bor, bol keltirar...[9].

XI asr yodgorliklarida, xususan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asarlarida adiblarning tilga qadriyatli munosabati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, M.Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk” asari XI asr davr madaniy hayoti va tilshunoslik tarixi haqida muhim ma’lumotlar beruvchi muhim manba sanaladi. O‘zbek ilm-fanida turkologlar, tarixchilar, adabiyotshunoslar, arxeologlar hanuz M.Koshg‘ariyga tilni yuksak qadrlagan inson sifatida baho berishadi. U o‘z asarida “Men o‘g‘uzlar, turklar, chigillar, turkmanlar, yag‘molar va qirg‘izlarning shahar va qishloqlari hamda yaylovlarini uzoq yillar kezib chiqdim. Ularning lug‘atlarini to‘pladim, turli xil o‘ziga xos so‘z xususiyatlarini aniqlab, tahlil qildim. Men buni til bilmaganim uchun emas, balki yetuk mutaxassis sifatida ularning farqlarini ko‘rsatish, adabiy tilni shakllantirish uchun qildim”, deya ta’kidlaydi. Uning “Devon-u lug‘otit turk” asari yoshlarga davr tilining o‘ziga xos fonetikasi va fonologiyasi, leksikologik va morfologik imkoniyatlari, dialektologiyasi haqida juda mukammal ilmiy ma’lumotlarni beradi. Muhimi, yoshlarni tilni qadrlashga o‘rgatadi.

XI asr mutafakkiri Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” asarida ham tilning buyuk qudrati, tarovati ochib berildi. Adibning ushbu asari ham yoshlarni tilga qadriyatli munosabatga bo‘lishga chorlaydi, ularni tildan foydalanishda ehtiyotkor bo‘lishga, o‘ylab gapirishga, nutq odobiga rioya qilishga da’vat etadi.

A.Navoiy, Z.M.Bobur, Furqat, Zavqiy kabi buyuk siymolar asarlarida ham til, uning qudrati, inson hayotidagi beqiyos o‘rni ulug‘lanadi. Bu holat ham ajdodlarimiz doimo tilga qadriyatli munosabatda bo‘lganliklarini dalillaydi. Masalan, A.Navoiy mumtoz va nodir asarlarni yaratish uchun arab va fors tili eng maqbul til sifatida e’tirof etilayotgan, umumturkiy til esa oddiy qoraxalq tili sifatida past nazarda qaralayotgan bir davrda, turkiy tilning yalavbardori sifatiga tilimizning betakror imkoniyatlari xususida tilshunoslikka oid mukammal qarashlarini baralla ayta oldi. Navoiy o‘z asarlari orqali turkiy tilning boy imkoniyatlarini namoyish etdi va uning adabiy maqomini oshirishga katta hissa qo‘shdi. Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy va forsiy tillarni qiyoslab, turkiy tilning jozibasi va ifoda imkoniyatlarini yorqin tasvirlab berdi. Ushbu asarda Navoiy turkiy tilning forsiy tildan boy va serqirrali ekanini asoslab berdi, undagi so‘z boyligini, grammatik mukammallikni va ifoda imkoniyatlarini o‘rinli misollar orqali dalilladi. Bu asar turkiy tilning qadr-qimmatini oshirishda katta ahamiyat kasb etgan va keyingi asrlarda ham tilshunoslar uchun muhim manba bo‘lib qoladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o‘zbek adabiyoti tarixida muhim o‘rin tutadi. Ushbu asarda sarkarda, shoh va shoir Boburning o‘z tilini chuqur sevganini ko‘rish mumkin. Sababi asar eski o‘zbek tilida yozilgan va unda davr hodisalari, shaxsiy kechinmalar, tarixiy va geografik ma’lumotlar ona tilida sodda va aniq bayon qilingan. Bu uning ona tilini rivojlantirish va xalq uchun tushunarli qilish istagining kuchliligidan dalolat beradi.

Bobur so‘nggi nafasigacha sodda va tushunarli til tarafdori ekanligini namoyon etdi. Uning til uslubi xalqchil, murakkab va ortiqcha pardozlardan holi bo‘lgan. “Boburnoma”da har bir voqea sodda, tushunarli va tabiiy tilda ifodalangan. Misol:

“Qobul viloyatining qishlari birmuncha qattiq bo‘lur. Tog‘liq yurtning sovuqlig‘i ul viloyatda bor. Ammo qishloqning ko‘ngliga qulay bo‘lib, odamning ko‘ngliga yoqar...”

Ushbu misolda sodda, xalq tiliga yaqin so‘zlar tanlangan. Bobur murakkab arabcha yoki forscha iboralardan chetlanib, tilni xalq uchun ochiq qildi.

Tahlillar ko‘rsatadiki, buyuk ajdodlarimiz, tilga doimo qadriyatli munosabatda bo‘lib kelishgan va bu ularning asarlarida ham yorqin aks etgan. Ularning tilimizga bo‘lgan cheksiz hurmati aks etgan boy va bebaho merosi biz uchun o‘chmas qadriyatdir. Albatta, yoshlarimizga ushbu allomalarning til haqidagi g‘oyalari hamda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan til siyosatining mohiyatini tushuntirish, ularda tilga bo‘lgan qadriyatli munosabatni shakllantirish davr talabi hisoblanadi. Shunday ekan, ushbu muammolarning “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi” to‘g‘risidagi Qonunda ham ko‘tarilganligi bejiz emas. Zero, tilimiz eng buyuk qadriyatlarimizdan biridir, yoshlarda tilga qadriyatli munosabatni shakllantirish hammamizning sharafli burchimizdir.

ISSN 2181-9572

XULOSA

Yoshlarga milliy tilimizga qadriyatli munosabatni singdirish ularning tashqi olamga, atrof-muhitga, ota-onasi, yaqinlari, yurtiga qadriyatli munosabatini yuzaga keltiradi. Tilni yaxshi bilgan yoshlar o‘z millatining tarixi va madaniyatini chuqur tushunadilar. Bu esa ularda yurtga nisbatan mehr va vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Milliy adabiyotni o‘rganish orqali yoshlarda Vatanga muhabbat shakllanadi. Til orqali yurt tarixini, buyuk shaxslar merosini o‘rganishga qiziqish oshadi va eng asosiysi, Vatan taraqqiyotiga hissa qo‘shish istagi paydo bo‘ladi. Natijada yoshlarda ona tiliga bo‘lgan hurmat va e’tibor ularning butun hayot tarziga ta’sir ko‘rsatadi. Tilga ehtiyotkorlik va muhabbat bilan yondashgan yoshlar oilasi, jamiyati, tabiati va yurtiga nisbatan ham mas’uliyatli bo‘ladilar. Shuning uchun ham ta’lim muassasalarida, oilada va jamiyatda yoshlarga milliy tilga bo‘lgan muomala madaniyatini shakllantirishda ularning ongi, shuuriga qadriyatlarni singdirish bugungi kundagi muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida / O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.02.2025-yildagi O‘RQ-1037-son.
2. O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida / O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2019-yildagi PF-5850-son.
3. Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida / O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.10.2020-yildagi PF-6084-son.
4. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida / O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020-yildagi PF-6097-son.
5. Кант И. Первое введение в критику способности суждения // Кант И. Соч.: в 6 т. Т. 5. – М., 1966. С. 99-160.
6. Кант И. Основы метафизики нравственности // Кант И. Соч.: в 6 т. Т.4 (1). – М., 1965. С. 219-310.
7. Эйнштейн Альберт // Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / под ред. А. М. Прохорова – 3-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1969.
8. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – B.72.
9. O‘zbek xalq maqollari. Sh.Turdimov tahriri ostida. – Toshkent, 2005. – 257 b.